

BOTU IJODINING BADIY XUSUSIYATLARI

Fotima Gapparova

Alfraganus universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr o'zbek adabiyotining iste'dodli namoyandasi Botu (Mahmud Hodiyeu) ijodida davr va zamon ruhining badiiy talqini tahlil etilgan. Shoirning she'riy, nasriy va dostonchilik merosi misolida ma'rifatparvarlik, ozodlik, ijtimoiy adolat, milliy qadriyatlar hamda inson qadr-qimmatini ulug'lash g'oyalari yoritiladi. Tadqiqotda Botuning **“Isyon”** she'ri, **“O'tmishdan bir ertak”** dostoni va **“Hayit harom bo'ldi”** hikoyasi asosida davr voqeliklarini badiiy aks ettirish usullari, qahramonlar ruhiyati, ramziy obrazlar, metafora, satira va xalqona til vositalarining qo'llanilishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining zamondoshlari xotiralari asosida uning shaxsiy fazilatlari hamda ijodiy qarashlari yoritilib, Botu merosining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni baholanadi. Tadqiqot natijasida Botu ijodi milliy adabiyotimizda davr ruhi, ijtimoiy tafakkur va insonparvarlik g'oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan muhim adabiy hodisa ekanligi xulosalanadi.

Kalit so'zlar: Botu, Mahmud Hodiyeu, XX asr o'zbek adabiyoti, davr ruhi, zamon talqini, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy adolat, milliy qadriyatlar, **“Isyon”** she'ri, **“O'tmishdan bir ertak”** dostoni, **“Hayit harom bo'ldi”** hikoyasi, badiiy obraz, xalqona til, satira, ramziy tasvir.

Botu (asl ismi Mahmud Hodiyeu, 1904–1938) o'zbek adabiyotining 1920– 1930-yillarida faol ijod qilgan, ma'rifat va yangilanish g'oyalarini targ'ib etgan shoir, jurnalist va jamoat arbobidir [1,26]. Botu ijodining o'rganilishi adabiyotshunoslar tomonidan keng qamrovli olib borilgan. Tadqiqotlarda uning she'riyati, dostonlari va ijtimoiy-madaniy mavzulari tahlil qilinadi. Shoirning isyonga to'la kayfiyati, insoniy adolatga bo'lgan e'tibori va milliy qadriyatlarni qadrlashi alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, uning doston va hikoyalaridagi ramziy tasvirlar, metaforalar va xalqona til uslubi ham o'rganiladi. Botu ijodining markazida yangilik, ozodlik, ilm va ma'rifat

mavzulari turadi. Uning ilk she'rlarida yoshlar orzusi, kelajak haqidagi ishonch, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni quvonch bilan kutib olish kayfiyati seziladi. Ayniqsa, ayollar erkinligi, paranjidan voz kechish, ta'lim olishga intilish kabi mavzular Botu asarlarida alohida o'rin tutadi. Hikoyalarida qishloq hayoti, dehqonlarning ruhiy holati, bolalar dunyosining samimiy tasviri badiiy ravishda aks etadi.

Botu o'z zamondoshlari xotirasida mehribon, serg'ayrat va ma'naviy jihatdan boy shaxs sifatida qolgan. Laziz Azizzodaning so'zlariga ko'ra, u insoniylik, fidoyilik va xalqqa xizmat qilish ruhiga ega bo'lgan: "Xalqqa xizmat qilish g'oyasi uning miyadan keng o'rin olgandi" [2,4]. V.P.Vasilyeva esa Botuning ijodga jiddiy yondashganini, o'zbek tilidagi asarlarini rus tiliga tarjima qilib, yangi so'zlarni daftarga yozib o'rganishini ta'kidlaydi: "U o'z asarlarini o'zbek tilida ravon o'qir, so'ng rus tiliga so'zma-so'z tarjima qilardi. Har yangi rus so'zini daftarga yozib o'rganardi" [2,4]. Rahimjon Otajonov Botuni serg'ayrat, teran fikrli va rus tilida ham ijod qila oladigan shaxs sifatida eslaydi: "Botu juda serg'ayrat, qarashlari ma'nodor, teran fikrli inson edi. U rus tilida ham yaxshi she'rlar yozardi" [2,16]. Shuningdek, Bobohon Sharipovning xotiralariga ko'ra, Botuning xalq ijodiga bo'lgan muhabbat onasining tarbiyasi orqali shakllangan. Tarix fanlari nomzodi Ochil Qodirov shoirni chuqur hurmat va ehtirom bilan eslaydi. Uning qayd etishicha, u Botu bilan 1926-yil may oyida Moskvada tanishgan bo'lib, o'sha paytda shoir Moskva universitetini tugatayotgan edi. Ochil Qodirov Botuning serg'ayratligi, teran fikrliligi va keng dunyoqarashini alohida ta'kidlaydi [2,17]. Shoir nafaqat o'zbek tilida, balki rus tilida ham badiiy jihatdan yetuk she'rlar yozgan. Eng e'tiborli jihatlardan biri shundaki, Botuning ayrim she'rlari qamoqda yotgan mahbuslar orasida qo'lma-qo'l o'tib, yod bo'lib ketgan. Bu hol shoir ijodining inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatganini, uning so'zi og'ir ijtimoiy sharoitda ham umid va ruhiy tayanch vazifasini bajarganini ko'rsatadi. Botu ijodi va shaxsiyati zamondoshlari uchun mislsiz namunadir: u nafaqat she'riyat va dostonlarda milliy qadriyatlarni himoya qilgan, balki o'z hayoti va xatti-harakatlari bilan ham ijtimoiy va ma'naviy fazilatlarni namoyon qilgan.

Botuning she'riyati va dostonlari o'zbek adabiyotida davr ruhi va inson ruhiyati tasvirini ifodalashda muhim o'rin egallaydi. Shoirning she'rlari yosh avlodni

ruhlantirish, yangilik va ma'rifatga intilish, milliy qadriyatlarni qadrlash g'oyalariga bag'ishlangan bo'lsa, ularning badiiy ohangi o'zida isyonga to'la kayfiyatni ham mujassam etadi. Botu ijodida insonning ijtimoiy adolatsizliklarga, zulm va pastkashlikka qarshi pozitsiyasi ko'p uchraydi. U o'z asarlarida jamiyatdagi tengsizlik, boy va kambag'al ziddiyati, qadriyatlar buzilishi kabi masalalarni ochib beradi. Buni shoirning "Isyon" she'ri misolida ko'rishimiz mumkin.

*"Odam odamdir, sajdalar ortiq,
Odam so'zlari odamga toriq.
Bordan tug'ar kuch, bunga bor shohid,
O'ylaring tubsiz, tamalsiz zohid!
Istagimdan ko'p buyukdir jamiyatning istagi,
Shul sababdan istasam-da, jonlanolmas esdagi..."[2,50]*

Bu she'rda shoir insonni yuqori qadriyatlar egasi sifatida ko'rsatadi, zulm va adolatsizlikka qarshi ichki isyon ruhini ochib beradi. Shu jihatlari bilan Botu ijodi nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki o'quvchida ijtimoiy tafakkur va davr voqealarini anglashga yordam beradi. Botuning doston va hikoyalarida esa zamon ruhini ifodalash uchun metafora, tashbeh, ramziy tasvir va xalqona tildan ustalik bilan foydalanilgan. "O'tmishdan bir ertak" dostonidagi parchalarda qishloq boyi va Soraoy o'rtasidagi voqealar orqali ijtimoiy tengsizlik va insoniy adolat mavzusi yoritiladi.

*"Soraoyning ko'rgan kuni kun emas,
Boy uyida hech kim "Soraxon" demas.
Uning uchta kundoshining zug'umi
Sira lazzat beradigan non emas.
Uni yolg'iz ovutadi onalik,
"Qanday yaxshi, – deydi, – bo'lish bolalik!"[2,98].*

Ushbu misralarda Botu Soraoyning fojeali taqdirini chuqur badiiy ifodalaydi. Shoir "ko'rgan kuni kun emas" iborasi orqali qahramonning doimiy iztirob va ma'naviy ezilishda yashayotganini ko'rsatadi. Boy uyidagi sovuq muhit, kundoshlarning zug'umi Soraoy hayotini yanada og'irlashtiradi. "Non" obrazi bu yerda hayotning shodligi va rohatini anglatib, u lazzatsiz, ya'ni baxtsiz hayot ramziga aylanadi. Onalik esa Soraoy uchun yagona taskin, yashashga kuch beruvchi ma'naviy

tayanch sifatida talqin qilinadi. Shu orqali shoir ayol taqdiridagi zulm va ijtimoiy adolatsizlikni ochib beradi. Doston qahramonlari, xususan Turdi cho‘pon va Soraoy orqali shoir insoniy his-tuyg‘ular, sevgi, adolat va zulmga qarshi kurash ruhini tasvirlaydi. Boyning zulmi, Soraoyning esa qiyinchiliklarga bardosh berishi zamon va davr ruhini ochib beradi. Ushbu doston shuningdek, qahramonlarning ichki dunyosi, qaror va his-tuyg‘ulari orqali o‘quvchiga falsafiy va ma‘naviy mazmun yetkazadi.

Botu hikoyalarida davr va zamon nafasi ijtimoiy hayotdagi keskin burilishlar bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Yozuvchi XX asrning 20-yillarida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni oddiy insonlar taqdiri orqali yoritishga intiladi [3,54]. Uning hikoyalarida qahramonlar muayyan davrning mahsuli bo‘lib, ularning qarashlari, xatti-harakatlari va ruhiy holati zamon talabi bilan belgilanadi. Shu jihatdan Botu nasri tarixiy jarayonlarni badiiy talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Hayit xarom bo‘ldi” hikoyasi ijodkorning davr va qahramon talqinidagi mahoratini yaqqol namoyon etadi. Asarda eski tuzum tarafdorlari bo‘lgan mulla va boy obrazlari orqali an‘anaviy dunyoqarashning yemirilishi ko‘rsatiladi. Mulla Oxunjon domla va hoji pochcha obrazlari tashqi tomondan diniy e‘tiqod va urf-odatlariga sodiqdek ko‘rinsa-da, ularning ichki kechinmalarida qo‘rquv, xavotir va norozilik ustunlik qiladi. Muallif bu holatni kinoya va satira vositasida ochib beradi, natijada qahramonlarning ojizligi va zamon bilan kelisha olmasligi yanada aniqroq ko‘zga tashlanadi.

Botuning so‘z qo‘llash mahorati hikoyadagi jonli dialoglar orqali namoyon bo‘ladi. Qahramonlar nutqida xalqona iboralar, diniy atamalar va kundalik so‘zlashuv unsurlarining uyg‘unligi ularning ijtimoiy mavqeyini ochishga xizmat qiladi. Ijodkor til va uslub masalasida soddalik va tabiiylikni asosiy mezon sifatida tanlaydi [4,16]. Ortiqcha badiiy bezaklardan voz kechib, mazmunni aniq va ta‘sirchan yetkazishga intiladi. Shu bois Botu hikoyalari nafaqat adabiy, balki tarixiy-ijtimoiy manba sifatida ham qimmatlidir. Botu “Hayit xarom bo‘ldi” hikoyasida qahramonlar xarakterini ochishda ularning nutqiga xos xalqona iboralardan mahorat bilan foydalanadi. Masalan, hoji pochchaning “Bu yilgi hayit sharofatli bo‘la turganga o‘xshamaydi...” degan gapi xalq orasida keng qo‘llanadigan sodda, bashoratga moyil fikrlash tarzini ifodalaydi. Bu jumla orqali qahramonning ruhiy tushkunligi va kelajakka

ishonchsizligi ochiladi. Shuningdek, “Afsus yemaydigan zamon bo‘ldimi?” iborasi ham xalqona ohangga ega bo‘lib, davrning og‘irligi va oddiy insonlarning ichki nolalarini ifodalaydi. Bu kabi iboralar hikoyaga hayotiylik bag‘ishlab, qahramon nutqini sun‘iylikdan xoli qiladi. Hikoya yakunida hoji pochchaning “Voy, hayit harom bo‘ldi...” degan hayqirig‘i ayniqsa ta‘sirli. Ushbu ibora xalq tilida ishlatiladigan kuchli hissiy ifoda bo‘lib, bayram emas, balki fojiaga aylangan holatni ifodalaydi. Bu jumla orqali nafaqat bir oilaning, balki butun davrning fojiaiy ruhi umumlashtiriladi. Xulosa qilib aytganda, Botu ijodi o‘zbek adabiyotida XX asrning murakkab va keskin ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini badiiy jihatdan teran aks ettirgan muhim hodisalardan biridir. Shoir va nosir sifatida u davr ruhini, inson ruhiyatidagi iztirob, umid va isyon kayfiyatlarini mahorat bilan ifodalay oldi. Botuning she‘riyati yangilik, ozodlik, ilm va ma‘rifat g‘oyalarini targ‘ib etish bilan birga, jamiyatdagi adolatsizlik va tengsizlikka qarshi keskin munosabatni ham o‘zida mujassam etadi [5,98]. “Isyon” she‘ri shoir ijodidagi ichki norozilik va inson qadr-qimmatini ulug‘lash g‘oyasining yorqin ifodasidir. Doston va hikoyalarida esa Botu oddiy insonlar taqdirini markazga olib chiqib, tarixiy jarayonlarni insoniy kechinmalar orqali yoritadi. “O‘tmishdan bir ertak” dostonida ayol taqdiri, zulm va ijtimoiy adolatsizlik masalalari badiiy obrazlar orqali ochib berilsa, “Hayit harom bo‘ldi” hikoyasida davrning fojiaiy ruhi kinoya va satira yordamida ifodalanadi. Botuning xalqona tili, jonli dialoglari va ramziy tasvirlari uning asarlarini hayotiy va ta‘sirchan qiladi. Botu ijodi nafaqat adabiy-estetik, balki tarixiy-ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u o‘zbek adabiyotida inson, jamiyat va davr munosabatlarini yoritishda muhim badiiy maktab vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azizzoda, L. O‘zbek adabiyotida yangilanish jarayonlari. – Toshkent: Fan, 1985.
2. Botu (Mahmud Hodiyeu). Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – B.320.
3. Hojiahmedov N. XX asr o‘zbek she‘riyati rivoji. – Toshkent: Universitet, 2005.
4. Qodirov, O. XX asr boshlarida o‘zbek adabiy muhiti va ijodkor shaxs. – Toshkent: Akademnashr, 2004.
5. Qosimov B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

6. Suleymanova, S. A. (2024). Artisticity in the story genre. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(9), 63-68.
7. KUCHKAROVICH, K. (2024). THE INFLUENCE OF EASTERN POETRY ON WESTERN POETRY AND THE CREATION OF ALIGHIER DANTE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES Учредители: The USA Journals, 5(11), 47-54.
8. AzizaSherboboevna, K. (2021). Linguistic Characteristics Of Advertising Discourse: Creolized And Non-Creolized Advertising Texts. Int. J. of Aquatic Science, 12(3), 2944-2951.
9. Sherboboyevna, X. A. (2025). TIL, REKLAMA VA GENDER: IJTIMOIIY-MADANIY IDENTIFIKATSIYANING AKS ETTIRILISHI. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 133-142.
10. Sherboboyevna, X. A. (2025). REKLAMA DISKURSINI QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL QILISHNING KONSEPTUAL MODELI. KONFERENSIYA, 1(2), 1015-1021.
11. Холбобоева, А. Ш. (2024). РЕКЛАМА ДИСКУРСИНИНГ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 632-634.
- 12.